

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH

Azimboyeva Maxmuda Abduxolikovna

Toshkent shaxar Bektemir tumani

580-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Sharq xalqlari pedagogik tafakkuri maxsuli bo'lgan milliy g'urur tarbiyasining didaktik vositalarini aniqlash, tizimlashtirish, maktabgacha ta'lim jarayonida amaliyotida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda tarbiyachi va ota ona hamkorligi ta'minlash bolani ma'naviy jihatdan rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishning pedagogik zaruriyat sifatida ayrim taxlillar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, milliy g'urur, ijtimoiy pedagogik zaruriyat, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatni rivojlantirish, barkamol shaxs kamoloti, innovatsion ta'lim-tarbiya, shaxsni ma'naviy-ma'rifiy, madaniy shakllantirish, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. Выявление и систематизация дидактических средств воспитания национальной гордости, являющейся продуктом педагогического мышления народов Востока, обеспечение сотрудничества воспитателей и родителей в формировании национальной гордости у детей в процессе дошкольного образования служит важным фактором в духовного развития ребенка. В статье дается анализ социально-педагогической необходимости формирования чувства.

Ключевые слова: фольклор, национальная гордость, социально-педагогическая необходимость, воспитание в духе национальной гордости, развитие национальной культуры, развитие всесторонней личности, инновационное воспитание и обучение, духовно-воспитательное, культурное становление личности, образовательные технологии.

KIRISH

Jahon miqyosida yosh avlodni milliy iftixor ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatni rivojlantirish barkamol shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadni ko'zlagan holatda innovatsion ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsni ma'naviy-ma'rifiy, madaniy shakllantirishga asos bo'luvchi o'quv materiallari va ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunda taraqqiyotning global tendentsiyasi hisoblanadi. Ayni vaqtda Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda shaxsni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslarini uyg'unlashtirgan, tafakkur mahsuli xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur tuyg'ulariga ega insonni kamol toptirish qonuniyatlarini tadqiq etish insoniyat madaniyatining yuksalish omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi vositasida bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish va rivojlantirish takomillashtirish metodikalarini ishlab chiqish va ularni amalda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy g'ururini va o'zbekona madaniy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olib xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish imkoniyatlar ilmiy jihatdan asoslashga, xalq og'zaki ijodi vositasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida aniq maqsadga yo'naltirilgan shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida o'rin ajratilmoqda. Sharq xalqlari pedagogik tafakkuri maxsuli bo'lgan milliy g'urur tarbiyasining didaktik vositalarini aniqlash, tizimlashtirish, maktabgacha ta'lim jarayonida amaliyotida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda tarbiyachi va ota ona hamkorligi ta'minlash bolani ma'naviy jihatdan rivojlantirishda muhimomil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish, milliy g'urur hissini tarkib toptirishda foydalanish, qadriyatli yondashuvlar asosida jamiyatni rivojlantirishning me'yoriy- uslubiy ta'minotini kengaytirishga zamin yaratadi. Shunga ko'ra, Harakatlar strategiyasida "jismonan baquvvat, ma'naviy va aqliy rivojlangan, erkin fikr yuritadigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, yurtga sodoqatli yoshlarni tarbiya qilish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada turli xalqlar pedagogik tafakkuri maxsuli bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar, topishmoqlar, tez aytishlar maqollar, matallar, o'yinlar, laparlar, qo'shiqlar, latifalar, naqlar, turli bayramlar, marosimlarning mazmun- mohiyatini to'g'ri talqin qilgan holda, tarbiyalanuvchilarda milliy g'urur, milliy iftixor hissini shakllantirishning mazmuni, shakllari va metodlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi yosh avlodda ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllanib borayotgan milliy g'urur tuyg'usini yanada o'stirish, rivoj toptirishni talab etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xalqimizning o'ziga xos ma'naviy axloqiy, intellektual merosi hamda milliy, insoniy, bir so'z bilan aytganda umumbashariy qadriyatlarimizga asoslangan holda shaxs tarbiyasining insonparvarlik ruhida sug'orilgan o'ziga xos uslubini joriy qilishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni "Vatanga sadoqat milliy g'urur va buyuk ajdodlar ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar jarayonida xalkimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy kadriyatlar asosida mamlakat millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo dustlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning zaruriyati va mohiyatini yoshlar qalbiga singdirish jarayonlariga refleksiv yondashuv (o'tmishga, hodisa va voqelikka tahliliy yondashuv)ni tatbiq qilish bugungi kunda o'znga xos ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlarda refleksiv yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarning hodisa va voqelikni tahliliy o'rganishga qaratilgan faoliyatini joriy etishni nazarda tutadi". Mustaqil davlat talablariga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash, uzluksiz ta'lim tizimini

yaratish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Milliy qadriyat va an'analarimizga asoslanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

G'urur – so'zi faxr, iftixor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, kabi ma'nolarni anglatadi. Mumtoz she'riyat va nasrlarda, faxriya va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma'nodosh (sinonim) laridan foydalanilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida g'urur so'ziga quyidagicha sharx berilgan. Insonning biror narsadan mamnun bo'lib, faxrlanish hissi, faxr iftixor hisoblanadi. Milliy g'urur – muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlardan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daxolardan tarixiy obida va yodgorliklardan milliy urf-odatlaridan faxrlana olish hissidir. Milliy g'urur tuyg'usi har bir individual shaxsda quyidagicha namoyon bo'ladi: – millatning milliy va ma'naviy jihatdan erishgan yutuqlari, obro'-e'tibori bilan g'ururlanish, faxrlanish hissini his qilishi, millatning har qanday muammolariga befarq bo'lmaslikva unga javobgarlik hissini tuyishi; - o'z xalqi, millatiga jon kuydirishi va g'amxo'rlik qilishi; -o'z xalqining moddiy-ma'naviy me'rosini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi; -xalqning milliy- ma'naviy qadriyatlari, an'analarini, urf-odatlarini hurmat qilishi, ularni boyitish va takomillashtirishga o'z hissasini qo'shishi; -o'z millatiga bo'lgan mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish kabilar. Ba'zan g'urur so'zi kibrlanish, kibru havo, gerdayish, o'ziga bino qo'yish, manmanlik singari ma'nolarni ham tashiydi. Biz ijobiy ma'nodagi g'urur haqida fikr yuritamiz. Darhaqiqat, agar yuragida g'urur bo'lsa, inson o'zidagi bor imkoniyatlarini ishga solib, irodasini raso ushlab, barcha xislat va fazilatlarini yuzaga chiqarishga intiladi. Bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalash jarayonida ularning ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'sir etishi va mazmun- mohiyati bilan bir-biriga bog'liq bo'lishi lozim. "Millatning milliy-madaniy merosdan bahramand bo'lishi, o'z asliy tarixi, o'ziga xos qadimiy san'ati, ma'naviy qadriyatlari, diniy va dunyoviy bilimlari asosida kamtarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, poklik kabi axloqiy tushunchalar milliy g'ururni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi". Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy ongi, ularning xulq- atvori mehnatsevarlik, adolatparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarining negizi hisoblanadi. Axloqiy ong vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi tuyg'ular insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi. Bolalarning axloqiy ongi va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Ularda milliy g'ururni shakllantirish jarayonida estetik g'oya, estetik did, go'zallikdan zavqlanish qobiliyati ham o'sadi. Xalq pedagogikasida ifodalangan g'oyalar, u yaratgan og'zaki ijod namunalari, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Munis Xorazmiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ajdodlarimizning asarlarida o'z aksini topgan. Kichik yoshdan boshlab bolalarga respublikamizning davlat ramzlari bo'lgan Davlat madhiyasi, Qomusi, Gerbi va Bayrog'i, o'z qadriyatlari, tarixi, tili an'analari, milliy bayramlari, buyuk siymolari bilan faxrlana olish hissini maktabgacha yoshdan rivojlantirib borish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida milliy

g'ururni shakllantirish tarbiyasi asosiy o'rin tutadi. Tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxsda milliy g'urur tuyg'usini tarkib toptirish xalq pedagogikasi tajribasi asosida bolalik davridan rivojlantirish zarur. Shaxsning kamolotida milliy g'urur, milliy iftixor, o'z-o'zini anglash, faxrlanish tuyg'ularining zaruratini tan olish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi na'munalari juda katta rol o'ynaydi. Bolalar ongida milliy o'zbekona iftixor tuyg'usini shakllantirish va axloqiy tarbiyalashda va muammolari ustida ishlashda, albatta bolaning yoshi dunyo qarashi va oilaviy sharoiti inobatga olinishi kerak: 1.O'yinga moyillik. O'yinlar yordamida bola umumqabul qilingan xulq to'g'risida bilimlarni egallaydi. O'yinlarda, boshqa faoliyat turlariga ko'ra ko'proq boladan qoidalarga rioya etish talab etiladi. Bolalar ularni buzganga alohida e'tibor bilan tanbeh beradilar. Agar bola ko'pchilikning fikriga bo'ysunmasa, unda u ko'pgina yoqimsiz so'zlarni eshitishi, o'yindan chiqishi ham mumkin. Bunda bola boshqalar bilan hisoblashishga o'rganadi, adolat, haqiqat, rostgo'ylikdan dars oladi. 2.Bir maromdagi faoliyat bilan uzoq shug'ullana olmaslik. Psixologlar ta'kidlaganlaridek, 6-7 yosh davridagi bolalar o'z diqqatlarini 7-10 daqiqadan ortiq bir predmetda saqlay olmasliklarini ta'kidlaydilar. Bundan ortiq vaqtda bolalar chalg'iy boshlaydilar, o'z diqqatlarini boshqa predmetlarga ko'chiradilar, shuning uchun mashg'ulotlar vaqtida faoliyat turlarini tez-tez o'zgartirish zarur. 3.Tajribaning yetishmasligi sababli axloqiy tasavvurlarning yetarli aniq emasligi. 4.Shuningdek, amalga oshirish tartibi va amaliy qo'llash o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. 5.Kattalar va tengdoshlari bilan muloyim muloqotni qo'llashning bir tekis emasligi (kundalik hayotda va uyda, bog'chada va ko'chada). Qadim zamonlardan insonlar yosh va jismoniy, aqliy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini tushunganlar. Bu haqiqat alohida isbotlarni talab etmagan: yosh ulg'ayishi bilan donishmandlik shakllanadi, tajriba to'planadi, bilimlar ortadi. Har bir yosh davrida jismoniy, psixologik, ijtimoiy rivojlanishning o'z darajasi mos keladi. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan — O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida belgilanishicha, "yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: go'daklik(tug'ilgandan 1 yoshgacha); erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha); kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha); o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha); katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha)". "Aynan katta maktabgacha yosh davrida (5-6 yosh) bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi. Mazkur davrda o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi; o'zining qaysi millatga mansubligini biladi; o'zining hoxish-istaklari va qiziqishlarini aniq belgilaydi; o'z hissiyotlarini namoyon qiladi; o'z-o'zini baholashga qodir bo'ladi; mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi; g'oyalar taklif etadi,

an'analari, milliy bayramlari, buyuk siymolari bilan faxrlana olish hissini maktabgacha yoshdan rivojlantirib borish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini

ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida milliy g'ururni shakllantirish tarbiyasi asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxsda milliy g'urur tuyg'usini tarkib toptirish xalq pedagogikasi tajribasi asosida bolalik davridan rivojlantirish zarur. Shaxsning kamolotida milliy g'urur, milliy iftixor, o'z-o'zini anglash, faxrlanish tuyg'ularining zaruratini tan olish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi na'munalari juda katta rol o'ynaydi. Bolalar ongida milliy o'zbekona iftixor tuyg'usini shakllantirish va axloqiy tarbiyalashda va muammolari ustida ishlashda, albatta bolaning yoshi dunyo qarashi va oilaviy sharoiti inobatga olinishi kerak: 1.O'yinga moyillik. O'yinlar yordamida bola umumqabul tashabbuskor; xayrixoh va ochiqko'ngil bo'ladi".5-6 yoshdagi bola o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini tushunishi, idrok etishi va o'zining hissiyotlarini ularga moslashtirishga moyil bo'lib, hissiyotlarning yaxshi va yomon tarafga o'zgarib turishining asosiy sababini tushunadi; kimnidir ranjitib qo'ysa, uning xafa bo'lganida o'zini aybdor xis qiladi; yaxshi yoki yomon xulqni ajrata oladi va unga to'g'ri baho bera oladi; o'yin mobaynida g'oliblikdan quvonish hissini his qila oladi; yaqin insonlari va do'stlari bilan o'zidan kechayotgan yaxshi yomon hissiyotlari va kechinmalarini o'rtoqlasha oladi; qo'rquv va xavfni tushunadi; yoshiga mos bo'lgan, tushuna oladigan asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi va tushuntirishga harakat qiladi, fikrini bildiradi. Katta maktabgacha yosh davrida bola muloqotga kirishish davomida o'z fikrini, ichki his-tuyg'ularini va taassurotlarini namoyon etadi; oila va guruhda tashkil etilgan mehnat faoliyatida ishtirok etadi; o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotni ayta oladi; mustaqil, kattalardan bevosita mustaqillikni erkin namoyon etadi, yordam ko'rsatishga tayyor; tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishadi; tushunchalarda yoritilgan ijtimoiy hulk qoida va me'yorlariga bo'ysunadi (mumkin, man etiladi, yaxshi, yomon, kerak); boshqa bolalar bilan doimiy do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi".Bu davr bolaning hayotiga juda mas'uliyatli yondashgan holda, bolalarda milliy-ma'naviy, axloq ko'nikmalarni shakllantiriladi, bolada atrofdagilar hamda jamiyat a'zolariga nisbatan ijtimoiy munosabatlar qaror topadi. Bu esa, 5-6 yoshdagi bolalarning asosiy mayllarini tashkil etadi. Bular o'z-o'zini anglash, o'zligini namoyon etish, egallagan bilimlarini o'z faoliyatiga tatbiq qilishga bo'lgan kuchli intilishlarda ko'rinadi.

.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishdagi mavjud holatni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 5-6 yoshdagi bolalarda moddiy farovonlik va bilag'onligini namoyon qilishdan ko'ra milliy g'urur tuyg'usini his qilish istagi kuchliroq.Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intilishlari va dunyoqarashlari barqaror emas. Bunday holatda ularga milliy g'urur tuyg'usini tarkib toptirish haqida fikr yuritish mumkin emas. Barqaror bo'lmagan dunyoqarash va ishonch bolalarni kutilmagan qarorlar qabul qilish hamda nojo'ya qadamlar tashlashga olib keladi. Buning asosiy sababi, xulq-atvor me'yorlariga o'z xohishiga ko'ra amal qilmaslikdadir. Bunday

xme'yorlarga amal qilishga odatda bolalar ota- onalar va tarbiyachilar tomonidan majbur qilinadilar.

S.P.Akutinaning fikricha, bu yoshdagi bolalar o'zlarining hayotiy maqsadlarini aniqlamagan va yetarlicha anglab yetmagan bo'ladilar.

REFERENCES:

1. Выготский Л.С. Слепой ребёнок // Собр. соч. М.: Педагогика, 1983.Т. 5.
2. Денискина В.З. Психология воспитания детей с нарушением зрения /под ред Л.И. Солнцевой и В.З. Денискиной. М.: Налоговый вестник,
3. Россия.: учебное пособие для студентов педагогических вузов: в 2 ч. М.:Просвещение, 2010. Ч.1.
4. учеб. заведений / Л.В. Кузнецова, Л.И. Переслени, Л.И. Солнцева и др.; под ред. Л.В. Кузнецовой. М.: Изд. центр «Академия», 2002. 17.11.2011).Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. Тошкент.: "Fan va texnologiya"2008. -132 б.
5. Рахимова Ф.М. Активизация развития креативного познавательного мышления детей дошкольного возраста. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy,
6. Rakhimova Feruzakhon Muhammadjanovna. (2022). THE SYSTEM OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE EDUCATORS THROUGH PERSONCENTERED EDUCATION. World Bulletin of Social Sciences, 7, 75-77. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/583>
7. Rakhimova Feruzakhon Muhammadjonovna. (2021). Improvement Of The System Of Formation And Development Of Creative Activity Of Future Educators On The Basis Of PersonalityOriented Education. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 32
8. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejhss/article/view/23>
9. Qodirova Dildora Najatbekovna. (2022). FORMATION OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF PERSONALLY EDUCATION. World Bulletin of Social Sciences, 7, 70-72. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/581>